

## AGAR BOLA SIZNI ESHITMASA..... YOHUD NEGA BOLALAR ASABIYLASHMOQDA

*Muallif: Raximova Gulruh  
O'zDJTU 2-bosqich talabasi  
Ilmiy rahbar: F. Yuldasheva  
O'zDJTU katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda o'smirlar va bolalar orasida keng tarqalgan tez asabiylashish, hayotga bo'lgan qiziqishlarning pasayib borishi kabi muammolar, ularga sabab bo'ladigan omillar va yechimlari haqida batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, xarakter, jamiyat, sof munosabatlar, mehr, muhabbat, e'tibor, aqliy rivojlanish, ruhiy buzilishlar.

**Annotation:** This article describes in detail the problems such as rapid irritability, decreasing interest in life, the factors that cause them, and their solutions.

**Key words:** upbringing, character, society, pure relationships, kindness, love, attention, mental development, mental disorders.

**Аннотация:** В данной статье подробно описаны такие проблемы, как быстрая раздражительность, снижение интереса к жизни, факторы, их вызывающие, и пути их решения.

**Ключевые слова:** воспитание, характер, общество, чистые отношения, доброта, любовь, внимание, психическое развитие, психические расстройства.

Odobning elementar shakllari oila muhitida shakllanadi. Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Farzandlarimizda atrofdagilarga nisbatan mehrlilik, shirinzabonlik, ochiq chehralik inson dilini og'ritmaslik, shirin muomala qilish kabi fazilatlarining bo'lishi oila muhitiga bog'liqlik yuqori darajada.

Darhaqiqat, bolalar oilada tug'ilib, olti-yetti kunlik bo'lganlarida onalari beshikka soladi. Kecha va kunduz tinmasdan harakat qilib, oziqlantirib tarbiya qiladilar. Qachonki, bolalari olti-yetti yoshga yetsalar, maktabga beradilar. Maktabda muallim va ustozlar bor kuch-g'ayratlari ila tarbiya qiladilar. Maktab bolalarning ikkinchi beshiklaridir.

Avvalgi beshikda bolalarga onalari sut emizib, tanlarini o'stiradilar. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o'rgatib, aql va fikrlarini o'stiradilar. Bolalar uchun tanning salomatligi muhimdir. Ammo aql va fikrning salomatligi undan ortiqroq lozimdir. Chunki aql va fikrsiz tanadan na o'zi uchun va na boshqa kishilar uchun hech bir foyda yo'qdir. Shu sababli bolalarga avvalgi beshikdan ko'ra, ikkinchi beshik

bo'lgan - maktab yaxshiroq va foydaliroq, nazarimizda. Avvalgi beshikda sut va taom berib boqqan ota va ona qanday do'st va aziz bo'lsalar, ikkinchi beshikda ilm va odob o'rgatib, tarbiya bergan muallim va ustozlar undan ortiqroq do'st va azizdirlar. Agar farzandlar to'laqonli tarbiya ololmay, axloqan yetuk bo'lmasalar qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Shu haqida biroz fikr yuritsak. Bolalar bilan oila muhitida, ta'lim muassasida, jamoat joylari va transportida o'zaro munosabatlar bazan qiyin bo'lishi hammaga ma'lum. Biroq, o'smirlik davri kelganida ko'plab ota-onalar bundan avvalgi barcha muammolar "hali xolvasi" ekanligini tushunadilar. Bu yerda chekish, ichish, narkotiklar, maktabdagi yaramas xatti-harakat va boshqa shu kabi qonunbuzarliklar haqida emas, o'smirlarning oila-a'zolariga shafqatsiz, behurmat munosabatda bo'lishlari haqida so'z boradi. [1, 122-bet ]

15 yoshli o'smir qizcha do'konda onasi bilan yozgi liboslarni tanlamoqda. U juda qo'pol muomala qilmoqda: "Siz hech narsani tushunmaysiz...?", "Meni tinch qo'ying...", "Sizning kallangiz ishlamaydi", "Men siz bilan boshqa hech qayerga bormayman...", "Men sizga yuz marta aytdim". Ona xafa bo'lib qizining ortidan mayda qadam tashlaydi. Qandaydir e'tiroz bildirishga harakat qiladi, jerkishlarga nisbatan o'zini tutolmay qoladi, qiz qovog'i solingan kuyi, indamay, onasiga ham e'tibor bermay, savdo qatorlaridan ketib borardi. Uyga qaytishadi. Qiz to'g'ri borib "internet"ga kiradi va chehrasi shodlikdan porlaydi: bu bosh og'rig'i va qon bosimiga qarshi dori ichayotgan onasining ahvolini unutib ham bo'ldi.

Bu kabi hayotiy misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Ahamiyatsiz kundalik qo'pollik ana shunday. Odatda biz kattalar buni "hamma o'smirlarda shunday, ulg'aysa hammasi iziga tushib ketadi", deb o'zimizni yupatamiz... haqiqatda ham ko'pincha shunday bo'ladi. Biroq, vaziyat o'zgarmasa-chi?

Nima uchun o'smirlar o'zlarini bunday tutadilar? Albatta "har bir baxtsiz oila o'zicha bebaxt", biroq, bir narsa aniqki, bunday oilalarda ota-onalarning o'smirlar oldida hurmatlari yo'q. Buning sabablari turlicha. Tushunish mumkin bo'lgan sabab bo'lishi ham mumkin: kam maosh, past ijtimoiy maqom, ko'ngilsiz tashqi ko'rinish, turmush tarzi shaxsiy qoloqlik, bo'lmag'ur fe'l-atvor, hayotiy muvaffaqiyatsizliklar.... [ 2, 31-bet ]

Shifokorning (Zarifboy Ibodullaev - tibbiyot fanlari doktori, professor) fikricha, har ikki holat ham sabab bo'ladi. Chunki noto'g'ri tarbiya ham, bosh miya kasalliklari ham bolaning xulq-atvorini keskin o'zgartirib yuboradi. Bolaning miyasi nafaqat anatomik jihatdan kattalashib va shakllanib boradi, balki tashqarida bo'layotgan salbiy va ijobiy ma'lumotlar ham bola xotirasida saqlanib qoladi. [ 3, 248-bet ]

Ko'p vaqt o'tmay ota-ona ham, jamiyat ham ularning natijasini bolaning xulq-atvorida ko'radi. Bolaning yashash tarzi, asosan, taqlidga asoslanganligini unutmaslik kerak. Taqlid bolaning hayot tarzi hisoblanadi. Erta bolalik davridan tortib o'smirlik

davri tugagunga qadar bola boshqalarga taqlid qilib yashaydi. U nafaqat ota-onasi, atrofdagi qo‘ni-qo‘shnilar va maktabdagi ustozlariga, balki kino qahramonlari, artistlar va mashhur futbolchilarga (ayniqsa, o‘smirlar) ham taqlid qiladi. Bularning ichida bolaning xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘p bo‘lishi mumkin.

Mana shu salbiy ta‘sirlarni bartaraf etish uchun ta‘lim-tarbiya jarayonida nimalar qilish kerak?

Avvalo, tarbiya bu – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan tarbiyaga ega bo‘lgan kishilar tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilim o‘rgana ololmaydilar.

Tarbiya jarayonida: maqsadga yo‘nalganlik; ko‘p omillik; jo‘shqinlik; doimiylik; uzluksizlik; komplekslilik; variantlilik; ikki tomonlama xarakter muhimdir.

Agar bolalaringizning sizga nisbatan beg‘ubor munosabatda bo‘lishini xohlasangiz, unda ular qalbiga yo‘l izlang va toping... buning uchun avvalo, biz bilgan lekin har doim ham amal qilmaydigan “Oltin qoida” o‘zingiz ularga bolalardek samimiy, sof munosabatda bo‘ling. Farzandingiz bilan do‘stlashishda shunday samimiy bo‘linki, uning qalbi sizni izlasin, sizga talpinsin. Ko‘nglida kechayotgan barcha kechinmalarini o‘rtoqlashsin. Balki ular yanglishayotgandir. Shunday bo‘lsa-da ularni tinglashimiz, doimo muloqot jarayonida vazminlik saqlashimiz juda muhim. Chunki, Sohibqiron “Temur tuzuklari”da “So‘zlashuvchi garchand nodon bo‘lsa ham, tinglovchi dono bo‘lsin” – degan edi. [ 4, 81-bet ]

Xulosa qilib aytganda, bola ham huddi kattalarga o‘xshab hayotda o‘z o‘rnini topishga intiladi, atrofdagilar e‘tiborini qozonishni xohlaydi. Buni ijobiy holat deb belgilash kerak. Bu intilishlarni e‘tiborga olmaslik yoki bo‘lmasa «Qilayotgan ishlaring senga kerak emas, sen hali yoshsan» kabi iboralar yoki bolaning xatolarini ro‘kach qilish, endi kurtak otayotgan qiziqishlarini yo‘qqa chiqaradi va uning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun iloji boricha bolalarning qiziqishlariga to‘sqinlik qilmaslik zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus Ta‘lim vazirligi. Oila pedagogikasi .-”Aloqachi”, 2007.122-bet.
2. Nazarova S. Bolangizni bilasizmi?.-”Nihol”2017.-31-bet.
3. Ibodullayev Z. Asab va ruhiyat.-:”Sharq”, 2015.248-bet.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 81-bet.